Yil oxirida hamkorlar bilan sverka: 21 bandlik chek-list

Noyabr oxirida boshlang va har bir bandni bajarilgach belgilang. Chek-list debitorlar, kreditorlar va komissiya hamkorlari uchun birdek ishlaydi.

Tashkilot: _____ Kesish sanasi: _____ Mas'ul: _____

1 Ro'yxat va kesish sanasi

	Mas'ul	Sana
☐ Kesish sanasi belgilandi va barcha hamkorlarga oldindan xabar qilindi		
☐ Qoldig'i bor hamkorlar ro'yxati 1C yoki Excel'dan chiqarildi: debitorlar, kreditorlar, komitentlar		
☐ Hamkorlar qarz summasi bo'yicha tartiblandi, eng kattalari uchun alohida muddat qo'yildi		
☐ Har bir hamkor uchun mas'ul xodim va aloqa usuli (e-mail, Telegram, kuryer) yozildi		
☐ Takror hamkor kartochkalari tekshirildi: bitta hamkor qarzi ikki kartochkaga bo'linmagan		

2 Hujjatlar va akt loyihasi

	Mas'ul	Sana
☐ Kesish sanasigacha bo'lgan jo'natma, qabul va qaytarish hujjatlari o'tkazildi		
☐ Bank ko'chirmasidagi to'lovlar hamkor va shartnoma bo'yicha to'g'ri taqsimlandi		
☐ Avanslar alohida qatorda ko'rsatildi va keyingi jo'natmalar bilan yopildi		
☐ Yo'ldagi tovar va yo'ldagi qaytarishlar hujjat raqami bilan ro'yxatga olindi		
☐ Komissiya va javobgar saqlashdagi tovar qoldig'i sanoq yoki hamkor tasdig'i bilan solishtirildi		
☐ Bir nechta shartnomasi bor hamkor uchun har bir shartnoma bo'yicha alohida akt tuzildi		

3 Yuborish va farqlar

	Mas'ul	Sana
☐ Aktlar yuborildi va har birining yuborilgan sanasi qayd etildi		
☐ Bir hafta ichida javob bermagan hamkorlarga takroriy eslatma yuborildi		
☐ Har bir farq sababi va hujjati bilan farqlar ro'yxatiga yozildi		
☐ Kelishilmagan qatorlar bo'yicha kelishmovchilik bayonnomasi tuzildi		
☐ Tuzatilgan hujjatlardan keyin akt qayta chiqarildi va hamkorga yuborildi		

4 Yakunlash

	Mas'ul	Sana
☐ Imzolangan aktlarning asl nusxasi yoki skan nusxasi olindi		
☐ Imzolangan aktdagi qoldiq hisobdagi qoldiqqa teng ekani tekshirildi		
☐ Imzolanmagan aktlar ro'yxati sababi bilan bosh buxgalterga topshirildi		
☐ Muddati o'tgan va bahsli qarzlar ro'yxati rahbarga berildi		
☐ Aktlar hamkor va yil bo'yicha papkalarga joylandi		

> Namuna. Muddatlarni tashkilotingiz hisob siyosati va hamkorlar bilan shartnomalarga moslashtiring. Ombordagi qoldiq bilan bog'liq farqlarni sanoq natijasi bilan birga tekshirgan ma'qul.

Tekshirdi (buxgalter) _____

Tasdiqladi (bosh buxgalter) _____

Savollar va buyurtma +998 91 644 07 02 · t.me/SarvarBerdiev13 · skladqarz.uz